

TARBIYA KONSEPTSIYALARI

“UNIVERSITY OF ECONOMICS AND PEDAGOGY” NOTM

Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrasi o‘qituvchisi

Abdurazaqova Feruza

Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi, 3-bosqich talabalari

Arapova SHaxnoza Ilxomjon qizi

SHamshidinova Maxliyoxon Saydillo qizi

Annotatsiya: mazkur maqolada, tarbiyaviy ishlar konsepsiyasining zaruriyati, jahon tarbiya konsepsiyalarida insonparvarlik tamoyillarini, Insonparvarlik va Vatanparvarlik tarbiyasining uzviyligi bog‘liqligi haqida yoritib beriladi. Rivojlangan davlatlar, AQSh, Yaponiya, Frantsiya, Germaniyada ta’lim tizimi misolida.

Kalit so‘zlar: tarbiya, konsepsiya, g‘arazli kuchlar, ta’lim, tarbiya, tarix.

O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoev ta’kidlaganidek: “Bugungi tez o‘zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko‘rilmagan turli yovuz xavf-hatarlarga ham duchor qilmoqda. G‘arazli kuchlar sodda, g‘o‘r bolalarni o‘z ota-onasiga, o‘z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo‘lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko‘y bu masalada hushyorlik va ogohlikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo‘liga berib qo‘ymasdan, ularni o‘zimiz tarbiyalashimiz lozim”.¹

O‘zbekistonlik olim B.Ziyomuhammadov ta’lim va tarbiya tarixini o‘rganib, quyidagi xulosalarni asoslaydi:

-ta’lim-tarbiya masalasi xususiy ish emas, balki davlat tasarrufidagi muassasalarning faoliyatidir;

-ta’lim-tarbiyani oddiydan murakkabga tomon bosqichma-bosqich olib borish kerak;

¹ Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. “O‘zbekiston”. T.-2016, 22-bet.

-ta'lim-tarbiya jarayoni davlatning mutasaddi kishilari tomonidan tahlil qilinib, tasdiqlangan dastur va reja asosida olib borilishi lozim;

-ta'lim-tarbiya katta guruhlardan ko'ra, uncha katta bo'lmagan o'quvchilar guruhlarida olib borilgani sezilarli natijani ko'rsatadi;

-qizlar ta'limini o'g'il bolalar ta'limi bilan bir qatorda olib borilgani ma'qul;

-ta'lim-tarbiya mehnat tarbiyasi bilan uyg'un holda olib borilsa, yaxshi natija beradi;

-jismoniy va ahloqiy tarbiya bilan bir qatorda nafosat tarbiyasini amalga oshirish lozim.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da: “Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan. Binobarin bir-birlariga nisbatan birodarlarcha ruhda munosabatda bo'lishlari kerak”(1-modda).

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida: “Yashash huquqi har bir insonning uzviy huquqidir. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir”(24-modda).

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov ilgari surgan islohotlarning muhim tamoyillaridan biri ijtimoiy siyosatga qaratilishi bilan ajralib turadi. Bugun yurtimizda amalga oshirilgan “Onalar va bolalar” yili, “Inson manfaatlari” yili, “Sog'lom avlod” yili, “Homiylar va shifokorlar yili”, “Onalar va bolalar yili” “Barkamol avlod” yili, “Mustahkam oila”, Sog'lom ona va bola yili” yilning davomi sifatida Prezident Sh.M.Mirziyoev tomonidan 2017 yilni “Xalq bilan muloqat va inson manfaatlari yili” deb e'lon qilindi. 2018-yil “Faol tadbirkorlik Innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab quvvatlash yili ham davlatimizning xalqimizga qilayotgan g'amxo'rliqi insonparvarlik timsolining negizi sifatida amalga oshirilmoqda.

Insonparvarlik(«inson» — arabcha; «parvar» — fors-tojikcha; «lik» — o'zbekcha — kishiga g'amxo'rlik, gumanizm) — odamzodning qadri, uning erkinligi, qobiliyatlari har tomonlama namoyon bo'lishi uchun kurashish, insonning baxt-saodati, teng huquqliligi, adolatli hayotini ta'min etishga intilish, insoniylikning barcha tamoyillari yuzaga chiqishiga shart-sharoitlar yaratish ma'nosini anglatadi.

Insonparvarlik g'oyalari uzoq o'tizga xos tarixga ega hisoblanadi. Insonparvarlik g'oyalari, baxt-saodat va adolatga erishish orzu-havaslari xalq og'zaki ijodiyotida, adabiyotda, diniy va falsafiy ta'limotlarda uzoq o'tmishdan beri o'z aksini topib kelmoqda. Insonparvarlikning ko'rinishlaridan biri bu insonni ulug'lashdir. Inson

tabiatning gultoji, u har qancha maqtovga loyiq deb sanaladi. Bu haqda Qur'on va hadislarida, mutafakkirlar ijodida ibratli fikrlar aytilgan.

Biz bu o'rinda «Sharq Gegeli» degan sharaflı nomga sazovor bo'lgan faylasuf shoir, mutafakkir Mirzo Abdulqodir Bedil so'zlarini keltirib o'tamiz. Bedil insonni irqiy, milliy, diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar hurmat va ehtiromga sazovor ulug' zot deb biladi va bu haqda shunday deydi: «Har kimki, hazrati insonni sajdaga sazovor demasa, u mal'undir».

Ushbu fikr har qanday davr uchun ham adolatli, ardoqli va olijanobdir. O'zbek jadidlari (Behbudiy, Munavvar qori, Fitrat va boshqalar) va ma'rifatparvar shoirlar (Muqimiy, Furqat, Avaz O'tar o'g'li va boshqalar) ijodida ham insonparvarlik g'oyalari davom ettirilib, yuksak insoniylik, odamiylik fazilatları kuylangan.

Insonparvarlik yaxlit dunyoqarash tizimi sifatida birinchi bor Evropaning Uyg'onish davrida, ya'ni XV—XVII asrlarda shakllangan. Forobiyning fikricha, baxt-saodat, osoyishta hayot, kishilar o'rtasidagi hamkorlik jarayonida insonning ko'p ijobiy fazilatları va xislatları asosida insonlar jamoasi yuzaga keladi. Forobiy insonlarning inoq va do'st yashashi mamlakatda xalq uchun katta foyda keltirishini isbotlashga intilgan va tinchlikni qat'iy ravishda quvvatlab, butun faoliyatini inson xizmatiga qaratgan. Insonparvarlik tamoyili – odamlarga mehr-muhabbat bilan qarash, ularning haq-huquqlarini hurmat qilish, baxt-saodati, har tomonlama kamol topishi hamda ijtimoiy hayotda inson uchun qulay shart-sharoitla yaratib berish haqida g'amxo'rlik qilishni ifodalovchi tuyg'ular, qarashlar majmuidir.

Insonparvarlik tamoyili o'zining huquqiy ifodasini «Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi» (1948 yil 10 dekabr), «O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi» (1992 yil 8 dekabr) kabi hujjatlarda o'z aksini topgan.

Xushmuomalalik – o'zga kishilarga bo'lgan ichki hurmatning tashqi ko'rinishi. Uning 10 ta belgisi bor: insof, aql, ilm, oliyjanoblik, ko'rkam fe'l, yaxshilik, sabr, shukr, muloyimlilik.

“Hayo imondandir. Hayoli, odoli bo'lmoq har vaqt xayrli ishlarga sabab bo'ladi”(xadislardan).

“Vafosizda hayo yo'q, hayosizda vafo yo'q. Hayosiz inson – imonsizdir, imonsiz esa inson emasdir”(Navoiy).

“Insonda doimo turadigan husn va latofat hayo ila iffatdir. Hayosiz yuz jonsiz jasad kabidir”(Ibn Sino).

Sabr –qanoat – hayot qiyinchiliklarini chidam bilan engishdir.

“Kuchli odamlar hamisha oddiydirlar” (L.Tolstoy).

A.Navoiy inson taqdiri, xalq manfaatlari, mamlakat haqida g'amxo'rlikni asosiy masala qilib qo'ygan. U dunyoda eng qimmatli narsa insondir, degan fikrni olg'a surgan. Uning fikricha, butun mavjudot, borliq, insonga, uning baxt-saodatiga xizmat qilishi lozim. «Odamiy ersang demagil odami, Oniki yo'q xalq g'amidin g'ami».

Insonparvarlik keng ijtimoiy fikrni qamrab olib, adabiyot, falsafa, san'at va boshqa sohalarida namoyon bo'ldi.² XIV—XVII asrlarda insonparvarlik Italiyada, keyinchalik esa Evropaning boshqa mamlakatlarida tarqala boshladi.

Shundan keyingi asrlar davomida insonparvarlik g'oyalari katta tarixiy yo'lni bosib o'tdi. Jahon ilmiy, siyosiy va ijtimoiy falsafasida insonparvarlik «**gumanizm**» nomi bilan rivojlandi. Bu atama birinchi marta XIX asr boshlarida fanda ishlatila boshlandi va XX asrning o'rtalarigacha jamiyatdagi adolatsizlikni, tengsizlikni tanqid qilishga qaratildi. Insoniyatning XV asrdan to XX asrning o'rtalarigacha bo'lgan tarixi kishilarni asta-sekin insonparvarlik g'oyalarini o'zlashtirishga olib keldi va bu g'oyalarni inkor etish insoniyatni taxlika ostonasiga keltirib qo'yishini ko'rsatdi.

Shu asosda ikkinchi jahon urushidan keyingi davrda jahon taraqqiyotida tub o'zgarishlar yuz bera boshladi va haqiqiy insonparvarlik tomon jiddiy qadamlar qo'yildi. Bolalarimizning yoshlik paytlaridan boshlab, ma'naviy ahloqiy tarbiya negizi, shuningdek insonparvarlik sifatlarini tarbiyalash ijtimoiy turmushning murakkab vaziyatlariga moslashtirib beruvchi kelajakdagi barkamol shaxs tarbiyasi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish imkoniyatini berdi.

Birinchi Prezidentimiz O'zbekiston davlatining eng ulug'vor va insonparvarlik g'oyalaridan biri ichki va tashqi tinchlik siyosati bilan bog'lagandir. Inson tug'ilgan ekan, u yashashi kerak. Yashash uchun tinch bo'lishi zarur. Demak, davlatimizning tinchlik siyosati insonparvarlik siyosati mazmuni bilan uzviy bog'liqdir.

1992 yil 8 dekabrda qabul qilingan O'zbekiston Respublikamizning Konstitutsiyasi o'zining insonparvarlik g'oyalari bilan ajralib turadi. Bu haqda 1-prezidentimiz Islom Karimov shunday yozadi: «Shu ko'xna zamin odamlari ko'nglida ustuvor bo'lgan adolat, haqiqat, imon, mardlik, tantilik, bag'ri kenglik kabi ulug' xislatlar bu muborak hujjatda munosib o'rin olgan». Bu tarixiy hujjatda insonparvarlik o'z ifodasini to'la topgan.

“Har kim qariganda ham, mehnat layoqatini yo'qotganda, shuningdek, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega” 39-modda. Pensiyalar, nafaqalar, ijtimoiy yordam boshqa turlarining mikdori rasman belgilab qo'yilgan.

Hayotimizning keyingi yillarida butun jaxon miqyosida ayrim toifa yoshlar miyasini zaharlashga, ularni ekstrimizim va terrorchilik yo'lga chalg'ituvchi guruhlarining paydo bo'lishi, mamlakatimizga kirib kelgan «Vaxobiylik», «Xizbut taxrir» kabi zararli oqimlar yoshlarimizni chalg'itish, ularning ongi va qalbini zaharlab, o'z ta'sirlariga olish uchun qilgan Yoshlar ittifoqlari va ba'zi yoshlarning bu ta'sirga berilganliklari, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasiga befarq qaramaslikka undaydi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov ta'kidlaganidek «Vatanparvarlik - bu o'zbek xalqi milliy ruhiyatining ajralmas fazilatidir. Shavqatsizlik va zo'ravonlik uning tabiatiga yotdir. Bizning xalqimiz o'zining voqealariga boy ko'p ming yillik tarixi davomida ko'p narsalarni boshidan kechirdi. Madaniyat ilm, fan, o'z davlatchiligi yutuqlari nashidasini surdi, o'zaro nizolar, begonalar asorati alimini tortdi, eng yaxshi o'g'il-qizlaridan judo bo'ldi. Lekin tarixning o'yini ham, omonsiz jangu jadallar ham, tabiiy ofatlar va ochlik ham xalqimizning insoniylik tabiatiga dog' tushurolmadi. O'zbek oilasida bugungi kunda yaxshilik va yorug'lik, bolalarga mehr, kattalarga hurmat, yaqinlariga va boshqalarning qayg'usiga hamdardlik mujassamlangandir».

Hadislarimizda «Vatanni sevmok iymondandir» deyiladi. Vatan ostonadan boshlanadi, deydi donishmandlar. Bu dono so'zlar har bir kishining o'z vatanini sevish va qadrlashga da'vad etadi. Birinchi yurtboshimizning insonparvarligi, millatparvarligi evaziga 1991 yilning 31 avgustida O'zbekistonning davlat mustaqilligi e'lon qilingach, Vatan qadri ortdi, zo'rovonlik yo'li bilan yo'q qilingan milliy qadriyatlarimiz, dinimiz («Navro'z» bayrami, Ramozon va Qurbon hayitlari) xalqqa yana qaytarildi.

O'zbekiston Respublikasining yangi davlat bayrog'i, gerbi, milliy valyutasi, madhiya davlat ramzlari qabul qilindi. 1-Prezidentimiz I.A.Karimov ta'rifi ko'ra; Davlatimiz ramzlari bayroq, tamg'a, madhiya, O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy hotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtiradi. Mana shu ramzlarni e'zozlash, o'zining qadr-qimmatini, o'z mamlakatiga va shaxsan o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash demakdir. O'quvchilarning ongiga insonparvarlik g'oyalarini singdirib borish har bir pedagogning burchi va vazifasi hisoblanadi.

Tarbiyaviy ishlar konsepsiyasida tarbiyaviy tadbirlarni takomillashtirish zaruriyati, alohida ta'kidlangan: siyosiy tuzumning o'zgarganligi, yangicha iqtisodiy munosabatlarning shakllanib borishi, tarbiyaviy ishni yaxshilashda davr talabiga javob beradigan yangicha tamoyillar g'oyalar, ish uslubilarini ishlab chiqish va o'qituvchining ijodkorlik faoliyatini takomillashtirishdan iboratdir.

Tarbiyaviy ishlarga yangicha munosabat mustaqillik ma'naviyati negizi asosida ta'lim islohotlarda olimlar va ijodkor o'qituvchilarning izlanishlarida o'z aksini topmoqda.

1-Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining «O'zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari» risolasida shunday deb yozgan edi:

«Maqsadimizga erishishimiz, yangi jamiyat qurishimiz, siyosatda ham, iqtisodda ham, ma'naviyat sohasida ham barcha islohotlarning taqdiri o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq».

«Yurtiga, Vataniga muhabbat, insonparvarlik tuyg'ulari xalqimizning qon-qoniga singib ketgan azaliy xususiyatdir. Ana shu noyob insoniy fazilatlarni asrab, avaylash va yanada takomillashtirish farzandlarimizni ozod va demokratik O'zbekistonning

munosib o‘g‘il qizlari etib tarbiyalash masalasi, ma’naviyat yuzasidagi ishlarimizning asosiy yo‘nalishini tashkil etmog‘i lozim».

Ijodkor ilg‘or o‘qituvchi-tarbiyachilar o‘z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi mahorat tamoyillarini asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlar o‘tkazishdan maqsad, milliy ma’naviyatni yosh avlod ongiga singdirish va e‘tiqodiga aylantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayonining milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan bog‘lab bola qalbiga va ongiga ta’sir ko‘rsatish;
- tarbiyaviy ishlarni o‘quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyani ta’lim bilan uzviyligini ta’minlash;
- tarbiya jarayonida bolalarni tarbiyalangan darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o‘stirish; bola shaxsiga hurmat va talabchanlik.

Tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tamoyillari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatga ega bo‘lib, uni qanday darajada olib borish tarbiyachining pedagogik mahoratiga bog‘liqdir.

An’anaviy pedagogikada formal va moddiy ta’lim nazariyasi keng tanilgan.

Formal ta’lim nazariyasiga Djon Lokk (XVII asr), Pestalotsi, Kant va Gerbart (XVIII-XIX asrlar) asos solganlar. XVIII asrning oxirlarida didaktik formalizm nazariyasi (konseptsiyasi) vujudga keldi (bu nom E.SHmit va A.A.Nemeyerning «Prinsipi vospitaniya i obucheniya» asarida tilga olinadi). Konseptsiya tarafdorlari ta’limni o‘quvchilarning iqtidori va qiziqishlarini rivojlantiruvchi vositasi sifatida e’tirof etadilar. Keyinchalik bu ta’limot formal ta’lim nazariyasi sifatida shakllantirildi.

Didaktik formalizm tarafdorlarining asosiy g‘oyasi qadimiy olim Geraklit tomonidan aytilgan (ko‘p bilim aqlni kuchaytirmaydi) fikrlariga asoslanadi. Keyinchalik bu g‘oyani I.Kant va I.G.Pestalotsilar rivojlantirishdi. Ular o‘qitishning asosli maqsadi, eng avvalo, o‘quvchining iqtidorini rivojlantirish, o‘quvchining to‘g‘ri tafakkur yuritishini kuchaytirish bo‘lishi shart deb hisoblaydilar.

Ushbu nazariya tarafdorlari falsafiy ratsionalizm (lotinchada «rationals» - aqlli)ga tayanadilar va bilim manbai aqldir, bilim faqat aqlning mustaqilligida tug‘iladi, shu bois ta’lim o‘quvchilarning ma’lum bilimlarni egallab olishlari emas, balki ularning aqlini o‘stirish, ya’ni, analiz, sintez, mantiqiy fikrlash layoqatlarini rivojlantirish kabi vazifani hal etishi zarur deb hisoblaydilar. Ularning fikrcha, fikrlashni rivojlantirish vositasi tillar, ayniqsa, qadimiy yunon va lotin tili, Shuningdek, matematikani o‘rganish lozim. Formal ta’lim elementlaridan hozirgi kunda ham foydalaniladi. Angliyadagi grammatik maktablarda, ushbu nazariya g‘oyalari asosida ish ko‘riladi.

XVII asr oxiri – XIX asr boshlarida moddiy ta’lim nazariyasi jadal rivojlandi. Nazariyaning paydo bo‘lishiga sanoat va uning ilmiy-texnik asoslari rivojlanishi asos bo‘lib xizmat qildi. Sanoatning jadal rivojlanishi tabiiy fan, texnik va amaliy

tayyorgarlikka ega bo'lgan odamlarni tayyorlash masalasini kun tartibiga olib chiqdi. Pedagogika tarixida bu nazariya (konseptsiya) didaktik materializm nazariyasi sifatida ham mashhurdir. Ushbu nazariya tarafdorlari (ularni “entsiklopedistlar” deb ham ataganlar), xususan, ingliz shoiri va tarixchisi Dj.Mil'ton, nemis pedagogi N.B.Besedovlar maktabning asosiy maqsadi o'quvchilarga bilimlar berish deb hisoblaganlar hamda o'zlari o'qitadigan fanga iloji boricha ko'proq materiallarni kiritishga intilganlar.

Maktab ta'limi mazmunini shakllantirishga bunday yondoshishning samarasi kam bo'lib chiqdi chunki, o'quvchilarga juda ko'p axborotlar beriladi. Natijada axborotlar qisman va yuzaki o'zlashtiriladi. Bu nazariyaning boshqa tarafdorlari empirizm g'oyalarini ilgari suradilar (lotincha «empiria» - tajriba). Faylasuf-empiristlar, xususan ingliz faylasufi G.Spenser (1820-1903 yillar) bilish tajriba chegarasidan chiqqan olmaydi va bilim manbai fag'at tajriba hisoblanadi, deya ta'kidlaydilar. Bundan quyidagi pedagogik xulosalar chiqariladi: o'quvchilarni asosan tabiiy-ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kerak, ta'lim materiallarini tanlash, kelajakda o'quvchilarning amaliy faoliyatlari uchun zarur bo'lgan bilimlarga murojaat qilish kerak.

Maxsus maktablarda nuqsonga ega bo'lgan bolalar o'qiydi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasida turadi. Qoidaga ko'ra bu erda o'qish 6 yil davom etadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi. Germaniyada gimnaziyalar ham mavjud. Gimnaziyani bitirganlik haqidagi etuklik attestati oliy o'quv yurtida o'qish imkonini beradi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat xarajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi fideral qonunga ko'ra ular moliya yordamida oladilar. Bu yordamning yarmini stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarmini qarz tariqasida beriladi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki printsipligiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yhati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat engilmas kuch. – T: Ma'naviyat, 2008 y.
2. Qurbonniyazova Z. “Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiyalanuvchilarda milliy o'zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari” nomzodlik diss. T., 2002 y
3. Mavlonova R., Rahmonqulova N., Normurodova B. Tarbiyaviy ishlar metodikasi T., 2010 y.

4. Колосникова .А.,Н.М.Борытко и др. Воспитательная деятельность педагога М., 2006
- 5.Xoshimov K va b.«O`zbek pedagogikasi antologiyasi» T, «O`qituvchi». 1995y.
- 6.Ochilov M., Ochilova N. O`qituvchi odobi. T., 1997y.
- 7.Pedagogy and Practice: Teaching and Learning in Secondary Schools Leadership guide Status:
- 8.Recommended.Date of issue: 09-2004.Ref: DfES 0444-2004 G.10.
- 9.www. ziyonet.
10. Tojiboyeva, G., & Shobdurahimova, U. (2022). O ‘QITUVCHI FAOLIYATIDA MULOQOT MADANIYATI, UNI BAHOLASH MEKANIZMI VA PSIXOLOGIYASI. *Архив научных исследований*, 2(1).
11. Таджибаева, Г. Р. (2021). ПРИЧИНЫ И ПУТИ РАЗРЕШЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КОНФЛИКТОВ В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 4(3).